

INKULYUZIV TALIM TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

THE CONCEPT OF INCLUSIVE EDUCATION AND ITS PRESENT DAY IMPORTANCE ПОНЯТИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОСТЬ ВАЖНОСТЬ

Vahobov Shahbozbek Bobomurod o'g'li.

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi.

@shahboz_vahobov. (90) 057-62-52.

Anotatsiya; Inkulyuziv ta'lismi bu rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning sog'lom bolalar bilan bir matabda, bir oquv xonasida o'qitilishidir. Aynan inkulyuziv ta'lismi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiya bo'lishida va ma'nan rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Inkulyuziv ta'lismi qo'llash orqali biz nuqsonli bolalarni e'tiborda, ijtimoiy rivojlanishda va ta'linda o'z tenqurlaridan orqada qolmasligiga erishishimiz mumkin. Ushbu maqolada inkulyuziv ta'lismi nima ekanligi, uni qanday tashkillashtirish va ahamiyati haqida malumotlar beriladi.

Kalit so'zlar; Inkulyuziv, inkulyuziv ta'lismi, reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, inbitsil nuqson, debil nuqsonlar, ijtimoiy rivojlanish, kompensatsiya.

Uzoq yillar davomida nuqsonli bolalar alohida o'qitib kelingan bu esa ularning aqliy yoki jismoniy qobiliyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq edi, bugungi kunga kelib aynan nuqsonli bolalar uchun ham ta'lismi sohasida e'tibor yanada oshdi va inkulyuziv ta'lismi joriy etildi, aynan inkulyuziv ta'lismi orqali rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolada o'z tenqurlari bilan bir xonada ta'lismi olish imkoniyati paydo bo'ldi va bu yaxshi samara bermoqda. Shuning uchun ham hukumatlar tomonidan inkulyuziv ta'limga e'tibor yana ham kuchaydi.

Inklyuziv ta'lismi (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lismi jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lismi tizimidir. Inklyuziv ta'lismi siyosati turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lismi olishini qo'llab-quwatlaydi, va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lismi umumta'lismi jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'lismi joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan

bolalarning ta'limgan olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib, qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'limgan turli xil ehtiyojli bolalarning ta'limgan olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'limgan turli xil ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdag'i dars berishga yondashadigan ta'limgan ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limgan tatbiq etishda dars berish, o'qitish birmuncha samarali va unumli bo'lsa, bu nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar uchun foydali boladi. Inklyuziv ta'limgan maktablari bolalarning bilim olishi uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limgan-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'limgan imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limgan tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'limgan imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'limgan muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'limgan butun dunyoda maktab yoki intemat shaklida, shuningdek umumta'limgan maktablarining uncha katta bo'lmagan qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Integratsiyalashgan ta'limgan bolaga alohida yordamga nuhtoj shaxs sifatida qaraladi. Ushbu ta'limgan tiziminig quyidagi shakllari mavjud:

Jismoniy integratsiya - integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtaqidagi jismoniy farjni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

Funksional integratsiya - bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtaqidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy integratsiya - integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtaqidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvatlaydi.

Inkyuziv ta'limgan maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi. Ta'limgan muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korrektcion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'limgan dasturlari va korrektcion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limgan teng huquqligini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'om bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbat munosabatini shakllantirish. Undan tashqari inkulyuziv ta'limgan quyidagi maqsadlar ham ko'zlanadi;

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» - layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunda anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayot va mehnatga jalb etish.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) - anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydaii mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» - o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi. Bu kategoriyalarga inkulyuziv ta'lim orqali erishish mumkin. Shuni ham takidlash kerakki inkulyuziv ta'limga faqat rivojlanishdagi nuqsoni debil nuqsonli deb topilgan ya'ni o'z o'ziga xizmat qila oluvchi bolalar qamrab olinishi mumkin. Bundan tashqari inkulyuziv ta'lim tashkil etilgan maktablarda sinf o'quvchilari soni o'ttiztadan va ta'lim olayotgan nuqsonli bolalar soni uchtadan oshmasligi zarur bu me'yordan ortiq bo'lisi dars sifati uchun salbiy tasir etishi mumkin, inkulyuziv ta'limning yana bir talabi nuqsonli bolalar o'qiyotgan ta'lim muassasasida nuqsonli bolalar uchun alohida resurs-o'qituvchining tayinlanishidir. Bu o'qituvchining vazifasi nuqsonli bolaning darsdagi holat va ta'limidagi kamchiliklarini o'rganib ularga yechim topishdir, aynan ushbu talablar asosida inkulyuziv ta'lim tashkil etilsa nuqsonli bolalar ta'limida ijobiy yutuqlarga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda aynan inkulyuziv ta'lim nuqsonli bolalarning sifatli ta'lim olishini kafolatlaydi. Ularda bu ta'lim tizimi orqali o'z yaqinlaridan ajralmagan holda o'qish imkoniyat paydo bo'ladi va eng muhim tomoni ulardag'i doimiy ruhiy tushkunlik biroz bo'lsada kamayadi va ularning jamiyatga integratsiyasi kuchayadi bu esa ularni moslashuvchan va har narsaga qiziqishini ortiradi. Bu orqali biz ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish orqali, ularning imkoniyatlaridan jamiyat uchun foydalanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. 2017-yil.
- <https://www.unicef.org>.
- <https://dvedu.uz>.